

**YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MAHALLANING  
TUTGAN O'RNI**

Rashidova Baxti Yaxyayevna

Jizzax politexnika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi

katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning roli haqida so'z yuritiladi. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan.

**Kalit so'zlar.** Mahalla, oila, ma'naviy olam, kamolot, ijodiy qobiliyat, milliy g'urur, milliy madaniyat vatanparvarlik, ta'lim, shaxs erkinligi.

Yoshlarni har tomonlama yetuk, milliy an'ana va diniy qadriyatlar ruhida, shu bilan birga zamon bilan hamnafas qilib tarbiyalash bugungi kunda eng yetakchi muammolardan biri bo'lib turibdi. O'zbek oilasining tarbiya sohasida oldida turgan asosiy maqsadi o'sib kelayotgan avlod ongiga keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir. Chunki vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan oila, avlod-ajdodlarning nomus-origa chuqur ehtirom bilan qarashga, insonning o'z vijdoni va burchiga sodiqligiga borib taqaladi. O'zbek xalqining yuksak milliy qadriyatlarini vatanparvarlik, milliy g'ururni ma'naviy yuksaltirish jamiyat ravnaqi yo'lidi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi oilaga bo'lgan xalqimizning e'tiborini uzoq o'tmisht ma'naviy, madaniy, estetik madaniyatimiz bilan bog'liq holda shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Chunki har bir o'spirin oila muhitida kamol topadi, uning kelajakda qanday shaxs bo'lishi ana shu oila negizida aks etgan ma'naviy olam va estetik madaniyat bilan uzviy bog'liqidir. Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini quyidagicha ta'riflash mumkin: "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos urf-odatlar qadriyatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilada hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi."

O'zbekistonda fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o'rnak bo'ladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi.

Mahalla sharqona an'analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqda. Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishadi.



Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o'tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog'liq. Mahallada o'tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas'uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag'alga, mansabdoru oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida O'zbekiston milliy taraqqiyotning yuksalish davriga dadil qadam qo'ygani, bu o'zgarishlar barcha sohalarda sezilayotgani aniq raqamlarda ko'rsatildi. Jumladan, mahalla tizimi borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilgani va kelgusidagi ishlar belgilab berildi.

Yoshlar mahallalarda ulg'ayadi, xuddi shu bois ham ularni ushbu mahallalarda kitobga bo'lgan mehrini oshirish, kitobga jalb qilish ta'lim- tarbiyatadagi eng samarali usullardan ekanligi hech kimga sir emas. Murojaatnomada endi har bir qishloq va ovulning, mahallaning o'z kutubxonasi hamda ruhan tetiklik baxsh etuvchi sport maydonchasi bo'lishi haqidagi tashabbuslar davlatning yoshlarga qaratgan e'tiborining yana bir muammosini mustaqil hal qilishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimi joriy etiladi. Bu mexanizm 1 yanvardan ishga tushirilib, mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qoladi. Mahallada har bir fuqaro diqqat e'tiborda bo'lib, ayniqsa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda ayollarning o'rni va rolini mustahkamlash, ularni oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish, oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari mahalla oldiga muhim masalalarni qo'ymoqda. Shu maqsadda, viloyat, shahar, (tuman), chekka qishloq va ovullarda ham xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Notinch oilalarda jabrdiyda ayollarga maxsus order berilib, zo'ravonlikdan himoya qilinmoqda. Bunday ayollar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu ham insonparvarlikning yana bir ko'rinishi ham oiladagi tinchlik uchun xizmat qiladi.

Mahalla-asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezzulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda.

Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatib, bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'priq vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, o'z hayatini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi.

Ayniqsa, asrlar davomida yashab kelayotgan urf-odatlarimiz, udumlarimiz, qadriyatlarimiz, jumladan, keksa va yosh avlod suhbatlari, uchrashuvlar, mavsumiy bayramlar, lola sayillari, "boychechak" aytish, qovun sayillari, bola tug'ilishi bilan bog'liq aqiba marosimlari, qizlar majlisi, "yuz ochdi", "kelin salomlari", sumalak, echki o'yini, uloq o'yini kabi marosimlarning hammasi ham yoshlarni o'zbekona oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz tomonidan amal qilinayotgan milliy odatlarimizga ko'ra kattalarga birinchi bo'lib salom berish, kattalar suhbatiga aralashmaslik, uyga mehmonlardan so'ng kirish, eshikni birinchi bo'lib ochib, ushlab turish, davralarda kattalardan yuqoriga o'tmaslik kabi odob qoidalariga rioya qilish talab etiladi.<sup>26</sup>

Keyingi yillarda mahalla institutiga milliy davlatchiligidan asosiy quyi bo'g'ini sifatida qarab, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli va puxta

<sup>26</sup> Гаппаров Б.Н. ва бошқалар. "Ёшларни оиласа тайёрлаш". "Замонавий тадқиқотлар, инновациялар, техника ва технологияларнинг дозларб муаммолари ва ривожланиши тенденциялари" мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник анжуман. Жиззах. 10-11.04.2020, 1-том. 343-344 бетлар.



Lobachevsky  
University



o‘ylangan islohotlar amalga oshirilmoqda, soha rivojiga doir **ko‘plab** normativ-huquqiy hujjalalar qabul qilinmoqda, har bir hududda **“Obod va xavfsiz mahalla”** tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etilgan.

Mahalla jamiyatimizda ma’naviy muhit barqarorligini, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy himoya qilish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Jumladan,mahalla faollari tomonidan fuqaroning bandligini ta’minalash, yurtdoshlarimizni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalg etish, imkoniyati cheklangan oilalarining tomorqalardan samarali foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatilganini alohida e’tirof etish zarur.

Ayniqsa, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit asoslarini mustahkamlash maqsadida mahalla faollari ko‘magida ajralish yoqasiga kelib qolgan minglab oilalar yarashtirilgani, oilaning notinchligiga barham berilgani, mahallalarda jinoyat sodir etilishini oldini olish, namunali mahallalar sonining ko‘paygani albatta tafsinga loyiqidir.

Xalqimizda: **“Bir bolaga yetti mahalla ota-onा”**, degan gap beziz aytilmagan. Farzandlarimizning ma’naviy barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishi, yosh oilalarining mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, **“Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”** tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir.

Ayni vaqtida aholining ehtiyojmand qatlami bilan manzilli ish olib borish, **“Temir daftar”**, **“Ayollar daftari”** va **“Yoshlar daftari”**ga kiritilgan yurtdoshlarimiz muammolarini **“xonardonbay”** hal etishda, hech shubhasiz, mahalla organlari muhim o‘rin tutadi. **“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatni sari”** degan muhim tamoyilni amalga oshirishda avvalo mahalla tizimiga, mahalla faollari va fidoyilarining ulkan salohiyatiga tayanilmoqda.

Mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu yerda o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloqodobi uchun butun mahalla ahli mas’uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-onা”, “Bir bola tarbiyasi uchun yetti mahalla ota-onা” kabi naqllar beziz paydo bo‘lmagan. Yoshlarning har bir hatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi-barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro‘sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog‘dir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g‘ururlanadilar.

Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o‘zgarib turgan, ammo u o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o‘z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiq- lashtirib turgan. Mustaqillik yillarda mahallalar jamiyatning moddiy-ma’naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarini hal etib, fuqarolar yig‘inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mahalla, umuman, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko‘rsatishiga xizmat qilishidadir.

Xulosa o‘rinda ta’kidlash joizki, mahalla bir tomonidan har tomonlama rivojlangan shaxsni, ya’ni axloqiy va mehnat tarbiyasi asosida tarbiyalashni, ikkinchi tomonidan yosh insonni oilaviy hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va malaka bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Yoshlar tur mush jarayonida katta avloddan o‘zga jinsdagisi insonga munosabat haqida, nikoh haqida, oila haqida taqlidan ancha bilimlarni o‘rganib oladi, ahloq mezonlarini o‘zlashtiradi. Ularda o‘rtoqlik,



do'stlik, or-nomus, qadr-qimmat tuyg'usi erta rivojlana boshlaydi. Bu esa ularning oliv insoniy tuyg'u-muhabbat haqida, nikoh-oila munosabatlari haqida tasavvurlarining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" (BMT tomonidan 1952 yil 20 dekabrda qabul qilingan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-562-son 02.09.2019)
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021 yil PF-6155-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022 yil, 21 dekabr, № 259( 781)
6. Gapparov B.N. va boshqalar. "Yoshlarni oilaga tayyorlash". "Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman. Jizzax. 10-11.04.2020,
7. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). THE CONCEPTS OF SUSTAINABILITY AND INSTABILITY IN SYNERGETICS ARE AN IMPORTANT PRINCIPLE. Scientific progress, 3(3), 930-933.
8. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). CONTENT OF THE CONCEPT OF SYNERGETICS. *Scientific progress*, 3(3), 938-941.
9. Rashidova, B. (2022). YUKSAK MA'NAVIYAT AVVALO INSON ODOBIDA NAMOYON BO'LADI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(12), 351-355.
10. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 162-168.
11. Abdurashidovich, T. M. (2022). O 'ZINI O 'ZI TASHKILLASHTIRUVCHI TIZIMLAR-ILMIY BILISHINING DOLZARB METODOLOGIK MUAMMOLARNING BIRIDIR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(12), 361-365.



LORACHEVSKY  
UNIVERSITY

